

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI


FIZIKA – MATEMATIKA FAKULTETI
5140900 – KASB TA'LIMI YO'NALISHI

405 - GURUH TALABASI

MIRZAXMEDOVA MOXIRA

**Tikuv buyumlarini buyurtma asosida
konstruktsiyalash fanidan
yozgan**

REFERATI



Qabul qildi:
Topshirdi:

o'qit.J.Muhitdinova
M.Mirzaxmedova

Namangan – 2014 y


Mavzu: Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagini loyihalash va modellashtirish



Reja:

1. Yosh bolalar kiyimi tafsifi.
2. Yosh bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablar.
3. Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagini loyihalash.
4. Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagini modellashtirish.


Bolalar kiyimiga ham kattalar kiyimi singari talablar qo'yiladi. Ammo, o'ziga xosligi shundaki, **gigienik talab** birinchi o'rinda turadi, ya'ni bolalar kiyimi havo o'tkazuvchan, uyushoq, mayin, ochiq rangda bo'lishi kerak.


Estetik talab ham o'ziga xos bo'lib, rangdor, tiniq, yorqin ranglar qo'llaniladi. Ranglarni kombinatsiyalashda quvnoqlik, sho'xlik talab qilinadi. Bolalar kiyimida moda elementlarini o'zida oddiylashtirib, bo'rttirib ko'rsatish, yoshlarga xos quvnoq, shirin qilib tayyorlanadi. gazlamasi asosan ip tolali gazlamalardan, mayda gulli, xolg'xol, yo'lg'yo'l, sidirg'a bo'lishi maqsadga muvofiq. Bolalar kiyimida bezaklar, bo'rtirilgan holda burmalar, to'rlar, kashtalar, tesmalar ko'p qo'llaniladi. Ayniqsa applikasiyalar, kombinatsiyalashda, gazlama rangi gulli fakturasini moslashtiradi. Bolalar kiyimida keyingi vaqtda qavatli serburmalar, serxasham bezaklar ko'p qo'llanilmoqda kombinatsiyalashda, gazlama rangi gulli fakturasini moslashtiradi. Bolalar kiyimida keyingi vaqtda qavatli serburmalar, serxasham bezaklar ko'p qo'llanilmoqda





Боланинг ёши	Распашонка узунлиги	Распашонка кенглига
1-2 ойлик	24	26
2-6 ойлик	26	28
6 ойликдан 1 ёшгача	28	30





kerak bo'ladi.

$$\text{BnYAA} = 14,5 \text{ sm} \quad \text{Eo'CH} = 15,3 \text{ sm}$$

$$\text{KYAA} = 32 \text{ sm} \quad \text{EK} = 10 \text{ sm}$$

$$\text{OrbU} = 31 \text{ sm} \quad \text{OlbU} = 29 \text{ sm}$$

$$\text{EIA} = 19 \text{ sm} \quad \text{KU} = 45 \text{ sm}$$

$$\text{OrK} = 13,5 \text{ sm} \quad \text{EU} = 39 \text{ sm}$$

$$\text{OIK} = 11,7 \text{ sm} \quad \text{TU} = 22 \text{ sm}$$

Qo'shimchalar:

$$\text{QK} = 6-8 \text{ sm} \quad \text{bundan} \quad \text{QOrK} = 1,5 \text{ sm}, \quad \text{QOIK} = 1 \text{ sm}, \quad \text{QEO}' = 3,5 \text{ sm}$$


$$\text{QEIA} = 6-8 \text{ sm}$$

$$\text{QEO'CH} = 1,5-2 \text{ sm}.$$

Ko'ylakning to'r qismi

1. To'g'ri burchak chizilib, burchakka Bn nuqta qo'yiladi.
2. $\text{BnBl} = \text{OrbU} = 31 \text{ sm}$ (ort bo'lakdagi bel chizig'i).
3. $\text{BnK} = \text{Eo'CH} + \text{QEO'CH} = 15,3 + (1,5-2) = 17,3 \text{ sm}$.
4. $\text{BnE} = \text{KU} = 45 \text{ sm}$ (ko'ylak uzunligi).
5. Bn, K, Bl, E nuqtalardan gorizontaal chiziqlar o'tkaziladi.
6. $\text{KK}_1 = \text{KYAA} + \text{QK} = 32 + (5-6) = 38 \text{ sm}$.
7. K_1 nuqtadan pastga etak qismi bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va mos ravishda Bl, E_1 nuqtalar bilan belgilanadi.
8. $\text{Bl}_1, \text{Bn}_1 = \text{OlbU} = 29 \text{ sm}$ (old bo'lakdagi bel chizig'i).
9. Bn_1 nuqtadan chap tomonga gorizontaal chiziq o'tkaziladi.
10. $\text{KK}_2 = \text{OrK} + \text{QOrK} = 13,5 + 1,5 = 15 \text{ sm}$ (orqa kenglikni aniqlovchi chiziq holati).
11. K_2 nuqtadan bo'yin chizig'i bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va kesishish nuqtasi a bilan belgilanadi.
12. $\text{K}_2\text{K}_3 = \text{E}_1\text{A} : 3 + \text{QEO}' = 19 : 3 + 3,5 = 9,8 \text{ sm}$ (eng o'mizi kengligi).

13. $K_1K_3 = OrK + QOIK = 11,7 + 1 = 12,7$ sm (old bo'lak kengligini aniqlovchi chiziq).
14. K_3 nuqtadan bo'yin chizig'i bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va kesishish nuqtasi a_1 bilan belgilanadi.
15. $K_2K_4 = K_2K_3 : 2 = 9,8 : 2 = 4,9$ sm (yon chiziq).
16. K_4 nuqtadan pastga etak bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va $B1_2$, E_2 nuqta bilan belgilanadi.



1-rasm. O'g'il bolalar ko'ylagining chizmasi 2-rasm. O'tkazma eng va yoqalar chizmasi

Ort bo'lak chizmasi

17. $BnBn_2 = BnYAA : 3 + 1 = 14,5 : 3 + 1 = 5,8$ sm (bo'yin o'mizi kengligi).
18. $BnBn_3 = BnBn_2 : 3 = 5,8 : 3 = 19$ sm (bo'yin o'mizi chuqurligi).
19. Bn_3 , Bn_2 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
20. $BIE = OrbU = 31$ sm (Yelka chizig'ini aniqlovchi nuqta).
21. Bn_2 va E nuqtalar tutashtirilib, o'ng tomonga davom ettiriladi.
22. $Bn_2E_1 = EIK + 1,5 = 10 + 1,5 = 11,5$ sm (Yelka uzunligi).
23. $Bn_2v = 3$ sm (vitochkagacha bo'lgan oraliq).
24. v nuqtadan pastga o'rta chiziqqa parallel qilib vertikal chiziq o'tkaziladi.
25. $vv_1 = 6$ sm (vitochka uzunligi).
26. $vv_2 = 1,5$ sm (vitochka kengligi).
27. $v_1v_2 = 6$ sm (vitochka ikkinchi tomon uzunligi).
28. v_2 nuqtani E_1 nuqta bilan tutashtiriladi.
29. $K_2b = K_2E : 2$ (chizmadan olinadigan yordamchi nuqta).
30. $K_2O = 2$ sm (bK_2K_4 burchak bissekrissasi).
31. E_1 , b , O , K_4 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi..
32. $E_2E_5 = 1$ sm (etak qismining kengayishi).
33. K_4 , E_3 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

Old bo'lak chizmasi

34. $Bn_1Bn_4 = 1$ sm (yordamchi nuqta, o'rta chiziq holatini o'zgartirish).
35. Bn_4 va K_1 nuqtalar tutashtirilib, etak qismi bilan kesishguncha davom ettiriladi.
36. $Bn_4Bn_5 = BnBn_2 = 5,8$ sm (bo'yin o'mizi kengligi).
37. $Bn_4Bn_6 = BnBn_2 = 5,8$ sm (bo'yin o'mizi chuqurligi).

38. Bn_5 , Bn_6 nuqtalar tutashtirilib, o'rtasidan pastga o'tkazilgan perpendikulyarda 1,5 sm qo'yiladi.
39. Bn_5 , 1,5 sm, Bn_6 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
40. $a_1E_2 = 1,5-2$ sm (Yelka chizig'i o'tadigan nuqta).
41. E_2 nuqta bilan Bn_5 nuqta tutashtiriladi va chap tomonga davom ettiriladi.
42. $Bn_5E_3 = EIK = 10$ sm (Yelka kengligi).
43. $K_3b_1 = K_3a_1:4$ (yordamchi nuqta).
44. $K_3O_1 = 1,5$ sm ($b_1K_3K_4$ burchak bissektrissasi).
45. E_3 , b_1 , O_1 , K_4 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi).
46. $E_2E_4 = 1$ sm (etak qismining kengayishi).
47. K_4 , E_4 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

O'tkazma eng chizmasi (2-rasm, a)

1. To'g'ri burchak chizib, burchagiga A nuqta qo'yiladi.
2. $AE = EU = 39$ sm (eng uzunligi).
3. Asos chizmasidagi E_1 , E_3 nuqtalar tutashtiriladi, o'rtasini topib X bilan belgilanadi va K_4 nuqta bilan birlashtiriladi.
4. $AO = K_4X - 3,5 = 12,5 - 3,5 = 9$ sm (eng boshi balandligi, 3,5 sm – hamma razmerlar uchun).
5. A, O, E nuqталardan gorizontal chiziqlar o'tkaziladi.
6. $AA_1 = EIA + QEIA = 19 + (6-8) = 26$ sm (eng kengligi).
7. A_1 nuqtadan pastga vertikal chiziq o'tkazilib, eng boshi balandligi chizig'i va etak chizig'i bilan kesishgan nuqtalar O_1 , E_1 bilan belgilanadi.
8. $Aa = AA_1:2 = 26:2 = 13$ sm (eng o'rtasi).
9. a nuqtadan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi va E_2 nuqta aniqlanadi.
10. O_1 va O nuqtalar a nuqta bilan birlashtiriladi.
11. aO_1 chiziq o'rtasini O_2 nuqta bilan belgilanadi.
12. O_1O_2 chiziq o'rtasidan pastga perpendikulyar o'tkazilib, unda 1 sm qo'yiladi.
13. O_2a chiziq o'rtasidan yuqoriga perpendikulyar o'tkazilib, unda 1 sm qo'yiladi.
14. Oa chiziq o'rtasidan yuqoriga perpendikulyar o'tkazilib, unda 1,5 sm qo'yiladi.
15. O, 1,5 sm, a, 1 sm, O_2 , 1 sm, O_1 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
16. EE_2 chiziq o'rtasidan perpendikulyarda pastga, E_2E_1 chiziq o'rtasidan perpendikulyarda yuqoriga 1 sm dan qo'yiladi.
17. E, 1 sm, E_2 , 1 sm, E_1 nuqtalar ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi.
18. $EE_3 = EE_2:2$ (taqilma o'rni).
19. $E_3E_4 = 6-8$ sm (taqilma uzunligi).

Nazorat savollari:

1. Qiz bolalar kiyimlarining tavsifi?
2. Qiz bolalar ko'ylagining to'r qismi qanday chiziladi?
3. Qiz bolalar ko'ylagining orqa bo'lagi qismi qanday chiziladi?
4. O'g'il bolalar ko'ylagining old bo'lagi qanday chiziladi?
5. Qiz bolalar ko'ylaklarining englari tavsifi?
6. Qiz bolalar ko'ylagining engi qanday chiziladi?
7. Qiz bolalar ko'ylagining manjeti qanday chiziladi?
8. Qiz bolalar ko'ylagining yoqasi qanday chiziladi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. "Tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish asoslari". O'quv qo'llanma. T., 2006 y.,
2. A.P.Rogova. «Erkaklar va bolalar ustki kiyimini konstrukciya-lash asoslari». Toshkent. O'qituvchi. 1988 yil.
3. A.P.SHershneva. «Основы конструирования женской и детской одежды». Moskva. Legprombytizdat. 1982 g.
4. G.V.Skachkova, L.V.Martoplyas. SHkola kroyki i shit'ya na domu. Minsk. "XELTON" 2000